



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



CONFERENCES.UZ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

SHIMOLIY FARG‘ONA TOG‘OLDI LANDSHAFTLARINING GEOEKOLOGIK VAZIYATINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Naimov Husniddin Nuriddin o‘g‘li

tayanch doktorant

Namangan davlat universiteti

e-mail: naimovhusniddin@mail.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarida sodir bo‘layotgan geoeologik muammolar va ularni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida malumotlar keltirilgan. Shuningdek, tog‘oldi landshaftlaridagi mavjud geoeologik vaziyatini baholash uchun qanday vazifalarni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tog‘oldi landshafti, geoeologik vaziyat, ekosistema, landshaft, geotizim, landshaft kompleksi, tabiiy-antropogen, landshaft strukturasi, melioratsiya.

THE IMPORTANCE OF STUDYING THE GEOECOLOGICAL SITUATION OF NORTHERN FERGANA MOUNTAIN LANDSCAPES

Naimov Khusniddin

Annotation: This article provides information on geo-ecological problems in the foothills of northern Fergana and measures to prevent them. It also outlines guidelines for assessing the current geo-ecological situation in the foothill landscapes.

Keywords: mountain landscape, geo-ecological situation, ecosystem, landscape, geosystem, landscape complex, natural-anthropogenic, landscape structure, land reclamation.

Bugungi kunda jahonda tabiatdan oqilona foydalanish, atrof-muhit musaffoligini saqlash, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni tezda bartaraf etish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi madaniyatini oshirish orqali jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish kabi dolzarb masalalar barchaning diqqat-e‘tiborini tortmoqda. Inson xo‘jalik faoliyatining kuchayib borishi, ya‘ni yer, suv resurslaridan nooqilona foydalanish, yerlarning meliorativ sharoitiga e‘tibor bermaslik, almashlab ekishni amalga oshirmaslik, yaylovlardan to‘g‘ri foydalanmaslik kabi holatlar ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Tabiat landshaftlaridan intensiv foydalanilayotganligi tufayli tabiiy muhitda sho‘rlanish, suv eroziyasi, jarlanish, surilmalar, suffoziyalar kabi tabiiy va tabiiy-antropogen jarayonlarning rivojlanishiga olib kelmoqda, shuningdek, texnogen buzilish, iqlim o‘zgarishi, kimyoviy ifloslanish, tuproq va biotik omillarning degradatsiyasi va boshqa salbiy ekologik jarayonlar kuchayib bormoqda [4].

Dunyo mamlakatlarida ham bunday noxush ekologik muammolarga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar muhim ahamiyat bermoqda. BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida belgilab berilgan maqsadlardan biri "quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o'rmonlarni ratsional boshqarish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va biologik xilma-xillik yo'qolishining oldini olish" vazifalari yechimiga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda ham ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yerlarning tabiiy meliorativ yaxshilash, atrof-muhitga chiqariladigan zararli chiqindilarni ruxsat etilgan me'yor darajasidan oshirmaslik bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish konseptsiyasi"da atrof-muhitni muhofaza qilish muammosini hal etishni ilmiy jihatdan ta'minlash, "2019–2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 484-sonli qaror bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

"Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarining geoekologik vaziyatini o'rganishning ahamiyati" mavzusidagi mazkur maqola ham aynan shunday dolzarb muammolar yechimiga qaratilgan. Ularni hal qilishda tog'oldi landshaftlarini tadqiq etish, landshaft-ekologik muammolarini vujudga keltiruvchi omillar va ularni bartaraf etish, landshaft-ekologik sharoitining antropogen ta'sir ostida o'zgarib borishini aniqlash ishlari olib boriladi. Buning uchun esa Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlaridagi geoekologik vaziyatni optimallashtirish muammolarini o'rganish va yechimlarini topish, turli miqyosda kartalashtirish kabi ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilishi, tog'oldi landshaftlarini ekologik jihatdan optimallashtirish, strukturasi o'rganish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida baholash, geoekologik sharoitini yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini aniqlash tog'oldi mintaqasi tabiatidan samarali foydalanish yo'l-yo'riqlarini ilmiy asosda amalga oshirish amaliyotga ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan chora-tadbirlar tavsiya etilishi lozim [1].

Tabiatdan oqilona foydalanish printsiplari va yondashuvlari asosida tog'oldi landshaftlarini ekologik jihatdan optimallashtirish, strukturasi o'rganish, landshaft komplekslarini landshaft sferasining alohida kategoriyasi sifatida tadqiq etish, meliorativ holatini aniqlash, geoekologik jihatdan rayonlashtirish, vujudga kelgan geoekologik vaziyatlarni optimallashtirish va Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarini ekologik jihatdan optimallashtirish, har bir hududning o'ziga xosligi va funksional bir butunlik xususiyatidan kelib chiqib, amalga oshirib boriladi.

Mamlakatimizda tabiiy sharoitni baholash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan ilmiy asosda foydalanish,

yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning sho‘rlanishi va cho‘llanishiga qarshi kurashish, odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta‘minlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bu borada, jumladan ekologik vaziyat o‘ziga xos bo‘lgan Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining bir butun tizim sifatida differentsiatsiyalashuvini e‘tiborga olib tadqiq etish, tog‘oldi landshaftlarining geokologik kartalarini yaratish va transformatsiyalanish qonuniyatlari aniqlanadi, geokologik vaziyatini baholash va geokologik rayonlashtirish orqali vujudga kelgan ekologik vaziyatlarni optimallashtirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqish ishlari amalga oshiriladi [3].

Respublikamizdagi geokologik vaziyatlarni tadqiq etishga oid ilmiy ishlar ko‘plab xorij va MDH olimlari, shuningdek, mamlakatimizning bir qator geograf va geokolog olimlarining ishlarida uchraydi. Bu olimlarning tadqiqot ishlarida hududlarning geokologik holati, geokologik vaziyatlarni keskinlashishini kuchaytiruvchi omillar, tuproq, suv, atmosfera havosining ifloslanishi, cho‘llanish jarayonlari, ekologiya va inson salomatligi masalalari, iqlim o‘zgarishi, “antropogen yuk”, ekologik vaziyatlarni o‘rganishda kompleks va tizimli yondashuv masalalari yoritilgan [1].

Biroq, shu paytgacha bajarilgan tadqiqotlarda Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining o‘rganish davomida uning strukturasi, baholash va geokologik vaziyatiga oid tadqiqot ishlari olib borilmagan va alohida o‘rganilmaganligi kuzatildi. Bu esa tog‘oldi landshaftlarining strukturasi, differentsiatsiyalanishi, baholash ishlari va geokologik rayonlashtirilishi kabi masalalar amalga oshirilishini taqozo etadi. Bir butun geokologik tizim sifatida Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi mintaqasining geokologik vaziyati baholanib, rayonlashtirish ishlari amalga oshirilishi hamda geokologik vaziyatlarini e‘tiborga olish nuqtayi nazaridan optimallashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Buning uchun esa quyidagi vazifalar:

tog‘oldi landshaftlarini alohida geotizim sifatida vujudga kelishi, differentsiatsiyalashuvi, geokologik vaziyat va uni baholash haqidagi ilmiy manbalar, kartografik materiallar va kosmik suratlarni o‘rganish hamda tahlil qilish;

tog‘oldi landshaftlarini alohida struktura sifatida shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi tabiiy-antropogen omillarni tadqiq etish;

tog‘oldi landshaft komplekslarining differentsiatsiyalashuvi va ularni geokologik jihatdan baholash;

Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi mintaqasini turli masshtabli landshaft va geokologik, ekologik baholash kartalarini zamonaviy dasturlar va GAT texnologiyalari orqali yaratish;

Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi mintaqasida vujudga kelgan geokologik vaziyatlarni baholash asosida rayonlashtirilishi hamda ulardagi geokologik

vaziyatlarni optimallashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar tayyorlash kabilar hal qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Боймирзаев К.М. Фарғона водийси воҳа ландшафтларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. “Фан” нашриёти, Тошкент, 2007. –130 бет.
2. Боймирзаев К.М., Мирзамаҳмудов О.Т. Шимолий Фарғона адирлари табиатидан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг географик жиҳатлари // Ўзбекистон ГЖ ахбороти, 25 – жилд, 2005. – 30 – 32 бетлар.
3. Зокиров Ш.С. Амалий ва антропоген ландшафтшунослик. «Университет» нашриёти, Тошкент, 1997 йил. – 102 бет.
4. Мильков Ф.Н. Физическая география: учение о ландшафте и географической зональности. Воронеж. 1986. – 328 с.